Московский государственный университет
имени М.В.Ломоносова

Филиал МГУ имени М.В.Ломоносова
в городе Ташкенте

Кафедра общегуманитарных
и социально-экономических наук

2015 ГОД – ГОД ВНИМАНИЯ И ЗАБОТЫ
О СТАРШЕМ ПОКОЛЕНИИ

# НАУКА, ПРОСВЕЩЕНИЕ И КУЛЬТУРА В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ ПО РЕАЛИЗАЦИИ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПРОГРАММЫ «ГОД ВНИМАНИЯ И ЗАБОТЫ О СТАРШЕМ ПОКОЛЕНИИ»

**МАТЕРИАЛЫ**

**научно-практической конференции**

Ташкент - 2015

– в-четвертых, в игре задействованы студенты с разным уровнем обученности и разными способностями.

**Литература:**

1. Речемыслительный аспект усвоения языков. Проблемы методики и технологии. Ларионова И.В. СПб 2011г.

2. Конышева А.В. Игровой метод в обучении иностранным языкам. – СПб.: КАРО, Мн.: Изд-во «Четыре четверти», 2006г.

## MAKTAB MUSIQA TA'LIMIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

**Haydarova N.H., JDPI «Musiqa ta'limi nazariyasi va metodikasi» kafedrasi katta o'qituvchisi,**

**Majidov D.Sh., SamDU «Musiqiy ta'lim» I-bosqich magistranti**

Respublikamizda yoshlarni jismonan sog'lom, ma'naviy barkamol insonlar bo'lib yetishishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Amaldagi ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida bo'lgani kabi umumta'lim maktablarida ham o'quvchilarni har jihatdan yetuk shaxs sifatida kamolga yetkazishga, ayniqsa, ularda yoshlikdan milliy g'urur, milliy ong, tafakkur va nafosatni shakllantirishga ustuvor ahamiyat berilayotgani diqqatga molikdir.

Milliy ong, milliy g'urur va tafakkur eng avvalo, xalqimizning tarixi, tili, adabiyoti, san'ati, ya'ni, o'z tarixiy taraqqiyoti mobaynida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarini o'rganish, ularga mehr qo'yish, asrab-avaylash va rivojlantirish negizida shakllanadi. Shu bois ham xalqimizning milliy qadriyatlari tizimida bebaho sarchashmalardan bo'lmish xalq musiqa ijodiyotining yoshlar ta'lim-tarbiyasida tutadigan o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Xalq donishmandligining ko'zgusi bo'lgan xalq musiqa ijodi o'zining tarbiyaviy imkoniyatlari bilan sanhat turlari ichida alohida ajralib turadi. Xalqimiz o'z tarixiy taraqqiyotining har bir bosqichida, hayotning turli ijtimoiy-siyosiy, madaniy ko'rinishlari, urf-odat, anhana va marosimlariga atab juda ko'plab

Umumta'lim maktablari mamlakatimizdagi ta'lim tizimining eng mas'uliyatli shakllantiruvchi bo'g'ini hisoblanadi. Aynan shu bosqichda musiqiy ta'lim va tarbiyaning poydevori yaratiladi . Ta'limning ilk mashg'ulotlaridan o'quvchilarni musiqaning inson hayotidagi o'rni va ahamiyati, uning tarbiyaviy ta'sirchanlik xususiyatlari,badiiy ifodaviy vositalari, tili, janrlari, milliy cholg'ular, xalq musiqasining turli marosim, mavsum, urf-odat va an'analari bilan bog'liq namunalari bilan tanishtirib borish musiqa ta'limi va tarbiyasining asosiy maqsad va vazifalari mohiyatini belgilaydi.

Umumta'lim maktablarining musiqa madaniyati darslarida, xususan, boshlang'ich sinflar repertuarida bolalar tafakkuriga mos, ko'proq o'yin-raqs xarakteridagi bolalar folklor qo'shiqlarga anchayin keng o'rin berilgan. Bunday qushiqlarni tinglash,o'rganish, ko'ylash uchun avvalo, ularning tarbiyaviy-tasirchanlikka ega namunalarini maqsadga muvofiq tarzda tanlash,ularning o'ziga xos ijro uslublarini e'tiborga olgan holda foydalanish eng muhim pedagogik vazifalar hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan takidlab o'tilgan pedagogik vazifalarni bugungi kundagi musiqa ta'limi amaliyotida qay tarzda amalga tadbiq etilayotganligi va ularning milliy musiqiy ta'lim samaradorligini tahminlashdagi imkoniyatlariga to'xtalib o'tishga harakat qildik.

Umumta'lim maktablarining «musiqa madaniyati» darslarida o'quvchilarni xalq musiqa merosi namunalari, bilan maqsadli va tizimli tanishtirib borish va ularda xalq musiqasini o'rganishga, ijro etishga zarur qiziqish va ehtiyojni yuzaga keltirish, kelgusida unga vorislik qila oladigan darajada kerakli nazariy bilim,tushuncha, amaliy ijrochilik ko'nikma va malakalarini shakllantirish o'ziga xos pedagogik yondashuv va metodik tayyorgarlikni talab qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik-fizialogik xususiyatlariga ko'ra o'yinga moyilligi,tinglash va kuylash uchun tanlangan musiqa asarlarini sho'x, raqsbop, o'yin harakatlari orqali ijro etiladigan namunalariga ko'proq e'tibor qaratish zaruratini to'g'diradi. Bu o'rinda yana bir muhim jihat qo'shiqlarni bolalarning

kuylash imkoniyatlariga ko'ra tanlash va ularni o'rganish jarayonida o'quvchilarni vokal-xor malakalarini rivojlantirish doimiy diqqat taqozo etadi.

Yana shu narsani alohida takidlash joizki, umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarda milliy musiqiy ta'limning asosini milliy tafakkurni shakllantirish tamoyiliga tayangan holda amalga oshirish ta'lim mazmunini boyitadi. Zero, musiqa boshqa fanlardan farqli o'laroq o'quvchi shaxsida milliy tafakkurni shakllantirish borasida kengroq imkoniyatlarga egaligi bilan ta'lim-tarbiya tizimida o'ziga xos o'rin tutadi.

Umumta'lim maktablarining «musiqa madaniyati»darslarini va ularda xalq musiqa merosini o'rganilishi yuzasidan kuzatuvlarimizda shu narsa ayon bo'ldiki, o'quv dasturlariga kiritilgan folhklor, mumtoz va maqom namunalari bilan o'quvchilarni talab darajasida tanishtirib borish, asarlarni tinglash, urganish va kuylash jarayonida zarur nazariy ma'lumotlarni yetkazish (tahlil qilish) borasida jiddiy kamchiliklar mavjud. Bu o'rinda ko'plab musiqa o'qituvchilarining xalq musiqa merosi, xususan, uning murakkab mumtoz va maqom san'ati bo'yicha yetarlicha bilim, malakaviy tayyorgarlikka ega emasliklari xam jiddiy muammo bo'lib kelayotganligi ayni haqiqatdir. Bu muammo o'z navbatida ko'plab musiqa o'qituvchilarini o'quv dasturidan o'rin olgan xalq qo'shiqlari, kuylarini, xususan mumtoz va maqom namunalarini chetlab o'tishlariga sabab bo'lmoqda.

Ushbu muammolar va ularni keltirib chiqarayotgan sabablarni taxlil qilish bizni shunday xulosalarga kelishimizga sabab bo'ldi:

1. Oliy pedagogik ta'lim tizimidagi «musiqiy ta'lim» yo'nalishi o'quv rejalariga «Anhanaviy va xalq qo'shiqchiligi», «Maqom asoslari va ijrochiligi», «O'zbek milliy musiqa merosi» (tanlov fani) fanlari kiritilib, o'qitilayotgan bo'lsa-da, ushbu fanlarni o'qitilishi bo'lg'usi o'qituvchilarni maktab faoliyatiga tayyorlashda kutilgan natijani bermayotganligi kuzatilmoqda. Bu narsa ushbu fanlar uchun ajratilgan o'quv soatlarini nixoyatda cheklanganligi, zarur metodik manbalarni yaratilmaganligi, qolaversa ushbu fanlarni aksariyat nomutaxasis proffesor-o'qituvchilar tomonidan o'tilayotganligida ko'rishadi.

2. O'quv dasturi va darsliklaridan o'rin olgan xalq musiqasining turli janrlari bo'yicha namunalarni o'rganish, ular haqida nazariy bilim, tushunchalarni berishga mo'ljallangan hamda xalq musiqasi bo'yicha ijrochilik an'analari yoritilgan uslubiy qo'llanmalar, maxsus to'plamlar bilan ta'minlanmaganligi.

3. Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-6-7-sinflarida o'tiladigan mavzular asosan musiqa san'atining xor, orkestr, simfonik janrlar, opera, balet kabi turlari bilan bir qatorda o'zbek xalq musiqasining mumtoz va maqom, hamda sharq xalqlari, Yevropa mumtoz musiqasi haqidagi ma'lumotlarni o'quvchilarga yetkazish, tanishtirib borish ko'zda tutilgan. Mavzular mazmunida sanab utilgan yo'nalishlar bo'yicha musiqa janrlarining o'ziga xos xususiyatlari, bastakor va kompozitorlar ijodiga mansub asarlar haqida suhbat, hikoya, tushuntirish orqali o'quvchilarda ular haqida to'liq tasavvur va tushunchalarni hosil qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham yuqori sinflarda musiqiy asarlarni ijro etishga nisbatan ularni tinglash, tahlil qilishga ko'proq ehtibor qaratiladi. Bu esa umumta'lim maktablarining 1–7-sinflari o'quv dasturiga kiritilgan materiallar bo'yicha musiqiy fonotekalar bilan to'liq ta'minlanishini taqozo etadi. Afsuski, hozirga qadar bu masala hal etilmagan muammoligicha qolib kelmoqda.

4. Musiqa darsliklariga kiritilgan (xususan 5-6-7 sinflarda) o'quv materiallari mazmuni va mavzulariga ko'ra juda ham keng qamrovli bo'lib, ularni o'zlashtirishi uchun ajratilgan o'quv soatlari hajmi ko'zlangan maqsadga erishish imkonini bermaydi.

Bu esa, musiqa madaniyati fani o'quv soatlari miqdorini ko'paytirishni, darslarni sinf va sinfdan, maktabdan tashqari faoliyatlar uyg'unligida tashkil etishga ehtiborni kuchaytirishni taqozo etadi.

Ta'kidlab o'tilgan muammolarning ijobiy yechimi o'sib kelayotgan yosh avlodni xalq musiqa merosi, qardosh va chet el xalqlari (Sharq xalqlari va Yevropa mumtoz musiqasi) musiqa madaniyati bilan har tomonlama puxta tanishtirib borish, ularda asl ma'nodagi musiqa madaniyatini tarkib to'tirishni kafolatlaydi.

## СОДЕРЖАНИЕ

### ПЛЕНАРНОЕ ЗАСЕДАНИЕ

**Камилов Х.М., Касимова М.С.** Новые подходы к древней традиции «устоз-шогирд» в системе непрерывного медицинского образования........................................5

**Маманазаров А.Б.** Интегративная функция педагогической науки по формированию экономической культуры у студентов в едином образовательном пространстве........................................10

**Отахонов Ф.Х.** Правовые аспекты защиты старшего поколения........................................17

**Иноятов С.И.** Кексаларни эъзозлаш халқимизга хос азалий қадриятдир........................................25

### ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В НАУКЕ, ОБРАЗОВАНИИ И ВОСПИТАНИИ МОЛОДЁЖИ

**Хабилов Нигман Л.,Усмонов Ф. К.,Мун Т.О.** Современные инновационные тенденции использования дентальных имплантатов с биоактивным покрытием........................................31

**Хаджикулова Ш.Н.** Интерактивные игры на занятиях английского языка как метод и средство взаимодействия преподавателя и студента........................................38

**Haydarova N.H., Majidov D.Sh.** Maktab musiqa ta'limidagi muammolar va ularning yechimlari........................................41

**Хайруллаев И.**Ташкилот маънавий-руҳий ҳаётини барқарорлаштиришда кекса авлоднинг ўрни........................................46

**Хакимова Г.Г.,Уста-Азизова Д.А.** Инновационная деятельность в науке, образовании и воспитании молодёжи........................................48